AFG‘ONISTONDA XAVFSIZLIK SEKTORI ISLOHOTLARI VA UNING MUVAFFAQIYATSIZLIGI

Nizamova Mohidil Maxmud qizi
O‘zDJTU, Siyosiy fanlar kafedrasi O‘qituvchi-stajyori

Istamova Dilnura Zafar qizi
O‘zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ORCID: https://orcid.org/0009-0006-2319-6968
E-mail: dilnuraistamova9@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20233296

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 2001-2021-yillar davomida Afg‘onistonda amalga oshirilgan xavfsizlik sektori islohotlari (XSI) jarayonini, uning moliyaviy ko‘rsatkichlarini, institutsional kamchiliklarini va oxir-oqibat muvaffaqiyatsizlikka uchrash sabablarini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xavfsizlik sektori islohoti, Afg‘oniston, Tolibon, SIGAR, arvoh askarlar, davlat qurilishi, NATO, xalqaro yordam, fluktuatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется процесс реформы сектора безопасности (РСБ) в Афганистане в период с 2001 по 2021 год, его финансовые показатели, институциональные недостатки и причины его окончательного провала.

Ключевые слова: реформа сектора безопасности, Афганистан, талибы, SIGAR, «солдаты-призраки», государственное строительство, НАТО, международная помощь, колебание.

ANNOTATION

This article analyses the Security Sector Reform (SSR) process conducted in Afghanistan between 2001 and 2021, examining its financial indicators, institutional weaknesses, and the reasons for its ultimate failure.

Keywords: Security sector reform, Afghanistan, Taliban, SIGAR, ghost soldiers, state-building, NATO, international aid, fluctuation.

KIRISH

2001-yil 11-sentabrdan so‘ng AQSh va NATO ittifoqdoshlari Afg‘onistonda harbiy operatsiyani boshlagan hamda davlat qurilishi va xavfsizlik sektori islohoti dasturini amalga oshirishga kirishgan. Ushbu jarayon aslida kengroq davlat qurilishi strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, barqaror siyosiy tizimni shakllantirishga qaratilgan edi.[1] Maqsad Tolibon rejimini ag‘darib, barqaror demokratik hukumat va professional xavfsizlik kuchlarini barpo etishdan iborat edi. Biroq 20 yillik sa’y-harakatlar, yuz milliardlab dollarlik investitsiyalar va minglab insoniy qurbonlar evaziga amalga oshirilgan ushbu loyiha 2021-yil 15-avgustda Tolibon Kobulni egallaganida to‘liq barbod bo‘ldi[2].

Xavfsizlik sektori islohoti davlat boshqaruvi, harbiy qo‘shinlar, politsiya va sud tizimlarini demokratik nazorat, shaffoflik va samaradorlik tamoyillari asosida qayta qurish

[1] Building the State? Security Sector Reform in Afghanistan between 2001 and 2021. (2021). Url: https://www.efsas.org.
[2]Security Sector Reform in Developing Countries, 2024. – P. 11. Url: https://www.bicc.de/Publikationen/securitysector

jarayonidir. Afg‘oniston tajribasi bu konsepsiyaning murakkab geosiyosiy muhitda qanchalik cheklangan imkoniyatlarga ega ekanligini yaqqol namoyish etdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xavfsizlik sektori islohoti nazariyasi OECD DAC (2005) tomonidan rasmiy tus oldi. Scholars Ball va Brzoska (2002) XSIni mustaqillik sharoitida demokratik boshqaruv o‘rnatishning asosi sifatida tavsifladilar. Sedra (2010) Afg‘onistondagi dastlabki islohot urinishlarini tahlil qilib, markazlashtirilgan rejalashtirish va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olmaslikning salbiy oqibatlarini ko‘rsatdi.

RAND korporatsiyasi tadqiqotchilari Jones va Libicki (2008) partizan urushi sharoitida xavfsizlik kuchlarini shakllantirish uchun kamida 10 yillik izchil siyosiy va harbiy sarmoya talab etilishini ta’kidladi. Barno va Bensahel (2011) AQShning Afg‘onistondagi strategiyasida uzluksizlik muammosini: har ikki-uch yilda o‘zgaradigan harbiy qo‘mondonlik va siyosatning strategik izchillikni buzganini aniqladi.

Hamidzada (2019) va Giustozzi (2009) mahalliy dinamikalar nuqtai nazaridan Afg‘on politsiyasi va armiyasidagi etnik-qabilaviy bo‘linishlar, martabali buyruq zanjirini bekor qiluvchi "warlord" ta’siri va korrupsiyaning institutsional mustahkamlanishini tadqiq etdi.

SIGAR (Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction) hisobotlari — 2008-2022 yillar davomida 500 dan ortiq nashr — AQSh hukumatining rasmiy tekshiruv hujjatlari bo‘lib, harbiy xarajatlar, ta’minot zanjiridagi yo‘qotishlar va dasturlarning muvaffaqiyatsizligini batafsil hujjatlashtirdi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Afg‘onistonda 2001–2021-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan davlat qurilishi va xavfsizlik sektorini isloh qilish jarayonlarini kompleks o‘rganish maqsadida sifat tadqiqot metodologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy yondashuvi sifatida tizimli tahlil va taqqoslamali tahlil usullari tanlandi, bu esa SSR jarayonining ichki va tashqi omillarini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tahlil quyidagi asosiy o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi: AMXK tarkib soni (qog‘oz va haqiqiy), yillik fluktuatsiya koeffitsienti, tashqi moliyalashtirish hajmi, korrupsiya ko‘rsatkichlari va institutsional samaradorlik baholash. Tadqiqot 2001-2021 yillar davomini qamrab olib, davriy-solishtirma tahlil usuli qo‘llaniladi.

Maqolaning cheklovlari sifatida ta’kidlash lozimki, "arvoh askarlar" muammosi tufayli AMXKning real tarkib sonini aniq belgilash qiyin, chunki rasmiy hisobotlar korrupsiyalangan ma’lumotlarga asoslanadi. Shuningdek, NATO davlatlarining individual yillik xarajatlari yagona jamlangan jadvalda mavjud emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

2001-2021-yillar davomida Afg‘on milliy xavfsizlik kuchlarini shakllantirishga ulkan mablag‘sarflangan bo‘lsa-da, bu tizim barqaror ishlamadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, Afg‘on milliy xavfsizlik kuchlarining qulashi birdaniga yuz bermagan, balki uzoq yillar davomida shakllangan tizimli zaifliklarning natijasi bo‘lgan[3]. 2001-yildan 2021-yilga qadar AQSh va NATO tomonidan Afg‘on Milliy Armiyasi (AMA) va Afg‘on Milliy Politsiyasi (AMP) shakllantirishga 88,32 milliard dollar sarflandi. Ammo 2021-yil iyul holatiga ko‘ra, AMXK rasmiy tarkib soni 300,699 nafar deb hisoblab chiqilgan bo‘lsa-da, harbiy tahlilchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra real jangovar kuch taxminan 96,000 nafar atrofida edi — ya’ni rasmiy ko‘rsatkichning faqat 32 foizi edi.

[3]Collapse of the Afghan National Defense and Security Forces, 2021. – P. 8. Url: https://www.nsfacoe.org.

Bu farqni “arvoh askarlar” (ghost soldiers) hodisasi izohlab beradi: mavjud bo‘lmagan xodimlarning maoshlari yo‘qolib ketgan. Qandahor viloyatida o‘tkazilgan audit natijasida 14,000 nafar ro‘yxatdagi politsiyachidan faqat 700 nafari (5 foiz) haqiqatdan ham xizmat qilayotgani aniqlandi. APPS (Afghan Personnel and Pay System) tizimida 7,100 ta dublikat va 1,009 ta noto‘g‘ri yozuv topildi[4]. Afg‘oniston xavfsizlik tizimidagi “arvoh askarlar” hodisasi davlat boshqaruvidagi chuqur institutsional muammolarni yaqqol namoyon etdi. Xususan, Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) hisobotlariga ko‘ra, Qandahor viloyatida ro‘yxatda 14 ming nafar politsiya xodimi qayd etilgan bo‘lsa-da, ularning atigi 700 nafari amalda xizmat qilayotgani aniqlangan. Bu holat davlat institutlari ustidan samarali nazoratning mavjud emasligi hamda hisobot tizimlarining soxtalashtirilganini anglatadi.

KO‘rsatkich	2010	2015	2021
Rasmiy tarkib soni	≈134,000	≈320,000	300,699
Haqiqiy jangovar kuch	≈60,000	≈150,000	≈96,000
Tafovut (foizda)	≈55%	≈53%	≈68%
Yillik fluktuatsiya (AMA)	24%	30%	33%
Yillik fluktuatsiya (AMP)	18%	20%	20%

1-jadval. AMXK rasmiy va haqiqiy tarkib soni taqqoslash.
Manba: SIGAR (2021, 2022), SIPRI (2021), RAND Corporation (2011).

Afg‘oniston xavfsizlik sektori moliyalashtirishda tashqi yordamga haddan tashqari qaramlik shakllandi. SIPRI (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda Afg‘onistonning harbiy xarajatlarining 82 foizini xalqaro yordam tashkil etdi. Mamlakatning o‘z mablag‘laridan ajratilgan harbiy xarajat 2004-2020 yillar davomida o‘rtacha yiliga faqat 219 million dollar bo‘ldi.

AQShning ASFF (Afghanistan Security Forces Fund) doirasida sarflagan 88,32 milliard dollaridan tashqari, NATO ANA Trust Fund orqali 3,45 milliard dollar (2021-yil may holatiga ko‘ra) va UNDP LOTFA dasturi orqali politsiya maoshlari uchun taxminan 5-6 milliard dollar ajratildi (2002-2021). Ushbu ulkan investitsiya mahalliy byudjetga asoslangan barqaror moliyaviy model o‘rniga doimiy tashqi homiylikka bog‘liq tuzilmani shakllantirib qo‘ydi. Natijada, tizim ichki iqtisodiy asosga emas balki, tashqi donor qaramligiga tayangan holda ish olib borgan.

2020-yil fevralda AQSh-Tolibon o‘rtasida imzolangan Doha kelishuvi (Tolibon bilan tinchlik bitimi) AMXK ma’naviyatiga hal qiluvchi zarba berdi. Kelishuv afg‘on hukumatini chetlab o‘tib tuzildi va Tolibon bilan muzokara qilish uchun AQShning siyosiy irodasi yo‘qligini tasdiqladi. SIGAR (2022) hisobotida ta’kidlanishicha, ushbu kelishuv afg‘on xavfsizlik kuchlaridagi ruhiy tushkunlikning asosiy manbalari edi.

RAND korporatsiyasi tadqiqotchilari Jones va Libicki (2008) partizan urushi sharoitida xavfsizlik kuchlarini shakllantirish uchun kamida 10 yillik izchil siyosiy va harbiy sarmoya talab etilishini ta’kidladi. Barno va Bensahel (2011) AQShning Afg‘onistondagi strategiyasida uzluksizlik muammosini: har ikki-uch yilda o‘zgaradigan harbiy qo‘mondonlik va siyosatning strategik izchillikni buzganini aniqladi.

[4]Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR). (2023). Why the Afghan Security Forces Collapsed. Url: https://www.ecoi.net.

Hamidzada va Giustozzi mahalliy dinamikalar nuqtai nazaridan Afg‘on politsiyasi va armiyasidagi etnik-qabilaviy bo‘linishlar, martabali buyruq zanjirini bekor qiluvchi “war lord” ta’siri va korrupsiyaning institutsional mustahkamlanishini tadqiq etdi[5].

Markazlashtirilgan boshqaruv muammosi ham kritik omil bo‘ldi. Prezident Ashraf G‘ani 2021-yil yozida viloyat gubernatorlari va harbiy qo‘mondanlar tayinlash, qurol-yarog‘ tarqatish va taslim bo‘lish to‘g‘risida qaror qabul qilishni o‘zi boshqardi. Bu esa soha mutaxassislarini qaror qabul qilish jarayonidan chetlatib, tizimning moslashuvchanligini yq‘q qildi.

SIGAR (Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction) hisobotlari 2008-2022-yillar davomida 500 dan ortiq nashr AQSh hukumatining rasmiy tekshiruv hujjatlari bo‘lib, harbiy xarajatlar, ta’minot zanjiridagi yo‘qotishlar va dasturlarning muvaffaqiyatsizligini batafsil hujjatlashtirdi.

Koalitsiyaning yo‘nalishi bir necha bor tubdan o‘zgardi, 2001-yilda anti-terror operatsiyasi, 2003-yilda davlat qurilishi, 2007-yilda janubiy hududlarda kuchaygan jangovar operatsiyalar, 2009-yilda Obama ma’muriyatining qo‘shinlar sonini keskin oshirish strategiyasi, bu afg‘on xalqi uchun yordam edi. Afg‘onistonga AQSH qo‘shini kirib kelganidan so‘ng, ba’zi hududlarda xavfsizlik masalalari barqarorlashdi va Tolibon ta’siri ancha kamaydi. Biroq, 2011-yildan boshlab qo‘shinlarning qaytarib chaqirib olinishi va strategik izchillikning yo‘qligi XSI dasturining uzluksizligini buzdi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Afg‘oniston fojiani kelib chiqtirgan asosiy omil faqat xavfsizlik sektori islohoti uslubiyatidagi kamchiliklar emas, balki davlatchilik, milliy birlik va jamiyatning o‘zi tomonidan loyiha egaligini ta’minlashni istagan siyosiy iroda mavjud emas edi. Ushbu saboqlar kelajakdagi xavfsizlik sektori islohoti loyihalari uchun muhim yo‘nalish ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bundan tashqari, xavfsizlik tizimining tashqi moliyaviy yordamga haddan tashqari bog‘liqligi uning mustaqil va barqaror rivojlanishini chekladi. Mahalliy siyosiy iroda va egalik qilish yetishmasligi esa islohotlarning ichki legitimatsiyasini zaiflashtirdi. Etnik-qabilaviy bo‘linishlar va tarixiy jihatdan markazlashmagan siyosiy tizim sharoitida tashqi model asosida qurilgan xavfsizlik institutsiyalari jamiyat bilan birlasha olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Building the State? Security Sector Reform in Afghanistan between 2001 and 2021. (2021). Url: https://www.efsas.org.
2. Security Sector Reform in Developing Countries, 2024. – P. 11. Url: https://www.bicc.de/Publikationen/securitysector
3. Collapse of the Afghan National Defense and Security Forces, 2021. – P. 8. Url: https://www.nsfacoe.org
4. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR). (2023). Why the Afghan Security Forces Collapsed. Url: https://www.ecoi.net.
5. Ayub Fatima, Kouvo Sari, Wareham Rachel. Security Sector Reform in Afghanistan. International Center for Transitional Justice, 2019. Url: https://www.ictj.org.

[5] Ayub Fatima, Kouvo Sari, Wareham Rachel. Security Sector Reform in Afghanistan. International Center for Transitional Justice, 2019. Url